

## MAKTABGACHA TA'LIMDA INNOVATSIYALAR, INTERAKTIV METODLAR HAMDA SUN'IY INTELEKTDAN FOYDALANISH

**Karimova Hamidaxon Arabboy**

**Andijon viloyati Marhamat tumani 4-  
son DMTT Til o'qituvchisi qizi  
karimovahamidakhon@gmail.com**

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada, maktabgacha ta'lim muassasalarida innovatsiyalar, sun'iy idrok texnologiyalaridan samarali foydalanish, uning o'rganuvchilarga ijobiy ta'siri va afzalliklari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Bundan tashqari, tadqiqotda raqamli ta'lim vositalarining bolalar rivojlanishiga ta'siri, pedagogik jarayonda sun'iy intellektning o'rni va afzalliklari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Sun'iy intellect, interektiv metod, usul, pedagogik jarayon, texnologiyalar, Kahoot.

### **Annotation**

In this article, innovations in preschool education institutions and the effective use of artificial intelligence technologies, their positive impact on learners, and their advantages are scientifically analyzed. In addition, the study highlights the influence of digital learning tools on children's development, as well as the role and benefits of artificial intelligence in the pedagogical process.

**Keywords:** Artificial intelligence, interactive method, approach, pedagogical process, technologies, Kahoot

### **Аннотация**

В данной статье научно проанализированы инновации в дошкольных образовательных учреждениях, эффективное использование технологий искусственного интеллекта, их положительное влияние на обучающихся и преимущества. Кроме того, в исследовании раскрыто влияние цифровых образовательных средств на развитие детей, а также роль и преимущества искусственного интеллекта в педагогическом процессе.

**Ключевые слова:** Искусственный интеллект, интерактивный метод, методика, педагогический процесс, технологии, Kahoot

**Kirish:** Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning dastlabki, ya'ni boshlang'ich poydevori hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi bolani jismoniy va aqlan sog'lom holda, o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirib, tizimli o'qitishga tayyorlab borishdan iborat. Maktabgacha ta'lim muassasalari – O'zbekiston Respublikasidagi talim muassalarining turi bo'lib, turli yo'nalishdagi maktabgacha bo'lgan davrdagi umumtalim dasturlarini amalga oshiradi. Maktabgacha talim muassasalari 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, nazorat qilishni, parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta'minlaydi<sup>20</sup>. Maktabgacha ta'lim – bu bolaning jismoniy, hissiy, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishida muhim o'rin tutadigan bosqichdir. Bu davrda bola jamiyat bilan o'zaro

<sup>20</sup> <https://info.ziyonet.uz/2/3>

aloqalarni o'rganadi, o'zini ifodalashni boshlaydi va o'zining shaxs sifatida shakllanishi uchun poydevor yaratadi. Shu bois, maktabgacha ta'limda innovatsiyalarni joriy etish bugungi ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. Hozirgi kunda texnologiyalar barcha sohalarda o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda, ta'lim tizimi ham bundan mustasno emas. Ayniqsa, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari maktabgacha ta'limda innovatsion metodlarni joriy etish imkonini beradi. Sun'iy intellektning ta'limdagi roli nafaqat o'qituvchilarga yordam berishda, balki bolalar uchun eng samarali ta'lim usullarini yaratishda ham katta o'rin tutadi. Shuningdek, sun'iy intellekt ta'limni shaxsiylashtirish, bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, o'qituvchilarga bolalar rivojlanishini yaxshiroq kuzatish va ta'lim jarayonini samarali boshqarish imkoniyatlarini yaratadi<sup>21</sup>. Hozirgi davrda SI o'quv faoliyatini individuallashtirish, bolaning rivojlanish ko'rsatkichlarini analiz qilib borish, ta'lim samaradorligini oshirish kabi dolzarb masalalarda qo'llanilmoqda[1].

### **Ta'limda innovatsiya nima?**

Ta'lim jarayonidagi innovatsiya — bu yangilik yaratish, joriy etish va amaliyotda qo'llash jarayoni bo'lib, maktabgacha ta'limda innovatsion yondashuvlar bola rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi<sup>22</sup>. Pedagogik innovatsiyalar mazkur yo'nalishning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir [2]. Innovatsiya orqali o'qitish jarayoni o'qituvchi-pedagog va o'quvchining o'zaro munosabatlarini optimallashtiradi. Ushbu vaziyatda har ikki shaxs faol ishtirokchiga aylanishi nazarda tutiladi. Ta'lim jarayonining samaradorligi yuqoridagi o'zaro munosabatlarning qanday bo'lishiga bog'liq.

### **Interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalarning bog'liqligi**

Xorijiy til misolida ko'radigan bo'lsak, turli innovatsion va interaktiv metodlar bolalarni chet tillariga bo'lgan qiziqishini ortishiga, oson shaklda o'rganishga yordam berishi mumkin. Zamonaviy ta'lim jarayonida mazkur metod va texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarni darsga jalb qilish, hamkorlikda fikrlash, raqobat muhitida bilimlarini mustaxkamlashga yordam beradi. Bu jarayonning samaradorligini oshirishda Kahoot, Linguacom kabi platformalarni misol qilib keltirish mumkin. Kahoot gamifikatsiyalashtirilgan ta'lim platformasi hisoblanadi. Uni nafaqat bog'cha balki boshqa ta'lim sohalarida ham qo'llash mumkin. U yorqin ranglari, animatsiyalari va qiziqarli elementlari bilan o'rganuvchining diqqat e'tiborini tortadi. Kahoot tezkor fikrlashni, alternative variantlarni solishtirishni o'rgatadi. Murakkab bo'lgan til o'rganish jarayonini turli mavzulashtirilgan o'yinlar orqali soddalashtiradi va qiziqarli qiladi. Bundan tashqari guruh va sinfdagi atmosferani jonli qilish va guruhdagi kommunikatsiyani takomillashtirishga yordam beradi. Shu jumladan, bu kabi platforma yordamida interaktiv metodlarni qo'llash tarbiyachi, o'qituvchilar uchun ancha osonlashadi. Ya'ni o'qituvchi bolalarning darajasini, kamchiliklarini oson tahlil qila oladi.

### **Sun'iy intellektning afzalligi**

Sun'iy intellekt texnologiyalarining maktabgacha ta'limda qo'llanilishi nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki o'qish jarayonini individual darajada moslashtirish imkoniyatini yaratadi. O'qituvchilar sun'iy intellekt yordamida bolalar uchun moslashuvchan o'quv materiallari va mashqlarni yaratishlari mumkin. Bu, bolalarning o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olishga yordam beradi, shu bilan birga ularning o'quv jarayonidagi muvaffaqiyatlarini oshiradi [3]. Bundan tashqari, sun'iy intellekt texnologiyalari o'quvchilarni doimiy ravishda baholash va ularning ta'limdagi muvaffaqiyatlarini tahlil qilish imkonini beradi. Bu pedagoglarga bolalarning rivojlanish darajasini aniqlashga yordam beradi, shuningdek, har bir bolaning ta'limni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarini bartaraf etishda qo'llaniladigan usullarni tanlashda yordam beradi [4].

<sup>21</sup> <https://doi.org/10.5281/zenodo.15495194>

<sup>22</sup> Montessori M. The Montessori Method. New York, 1912.

Shaxsiylashtirilgan ta'lim – bu har bir bolaning o'ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlari asosida ta'lim jarayonini tashkil etish usulidir. Sun'iy intellekt yordamida ta'limni shaxsiylashtirish, bolalarning qiziqishlari, ehtiyojlari va salohiyatlariga mos keladigan mashqlar va o'yinlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Misol uchun, bolalar ko'proq vizual yoki audio materiallarga murojaat qilishi mumkin, bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi [5].

Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida bolalar uchun maxsus treninglar va o'yinlar ishlab chiqilishi mumkin, bu esa ularning kognitiv va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi<sup>23</sup>. Har bir bola o'ziga mos ta'limni olish orqali o'qish jarayonida ko'proq muvaffaqiyatga erishadi [6].

**Xulosa:** Maktabgacha ta'limda sun'iy intellekt va innovatsion texnologiyalarni qo'llash ta'lim jarayonining sifatini oshiradi, bola rivojlanishini optimallashtiradi va samaradorlikni kuchaytiradi. Bolalarning kognitiv, ijtimoiy va hissiy ko'nikmalarini rivojlantirishda sun'iy intellektning ta'lim jarayoniga qo'shgan hissasi juda katta. Sun'iy intellekt asosida yaratilgan interaktiv dasturlar, o'yinlar va mashqlar orqali bolalar o'z qiziqishlariga mos keladigan, samarali o'quv jarayonini o'zlashtirishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ergasheva Dilnoza Abdulhakovna, Maktabgacha ta'limda innovatsiyalar: sun'iy intellekdan foydalanish afzalliklari, republican scientific and practical conference “problems and solutions of the competency-based approach in preschool education”, MAY 6-7, 202. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15495194>

2. Montessori M. The Montessori Method. New York, 1912

3. Mavlonova R., Xodjayeva M. "Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar". – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

4. McKinsey & Company, "How AI is Changing Education". – New York: McKinsey Global Institute, 2022.

5. Rasulov Q., "Maktabgacha ta'lim metodikasi". – Toshkent: O'zbekiston, 2021.

6. McKinsey & Company, "How AI is Changing Education". – New York: McKinsey Global

<sup>23</sup> McKinsey & Company, "How AI is Changing Education". – New York: McKinsey Global Institute, 2022